

Ya'qubning huzurida



12:45 / 20.03.2019 2679

5

«Kechqurun yig'lagan hollarida otalariga kelib: «Ey otamiz, biz Yusufni narsalarimiz oldiga qoldirib, o'zimiz quvlashib ketsak, uni bo'ri yeb qo'yibdi», deb uning yolg'on qonga bo'yalgan ko'ylagini keltirdilar».

«Bu Yusufning qoni», dedilar. Otalari payg'ambar, keksa hamda o'g'illaridan aqlliroq edi. Agar bo'ri insonni esa, uni jarohatlab, ko'ylagini yirtib yuborishini Ya'qub bilar edi. Yusufning ko'ylagi esa butun va qonga bo'yalgan edi. Albatta u qonning yolg'onligini va bu bo'ri qissasi to'qima ekanini bildi. U bolalariga: «Bu qissani siz o'zingiz to'qigansiz. **«Endi chiroyli sabr»**», dedi.

Ya'qub Yusuf uchun ko'p qayg'urdi, lekin u chiroyli sabr qildi.